YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI

O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi

"YOSHLAR-KELAJAGIMIZ" JAMG'ARMASI

CHEGARASIZ

O'zbekiston Yoshlar Tadbirkorligini Qo'llab Quvvatlash Markazi

MODUL 5

Faktor

NAJOT TA'LIM

O'SMONDAGI BOLALAR

IMKON

MARKETING UZ

YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI

1093

www.yoshlar.gov.uz

yoshlaragentligi

yoshlarmurojaatibot

yoshlaragentligi

yoshlaragentligirasmiy

YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI

YOSHLAR DAFTARI

YOSHLAR DAFTARI NIMA?

Ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi

YOSHLAR DAFTARIGA KIMLAR KIRADI?

18 yoshga to'lgan va **30 yoshdan oshmagan** ijtimoiy himoyaga, iqtisodiy va psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj va ishsiz yoshlar kiritiladi

YOSHLAR DAFTARIGA KIRISH UCHUN KIMGA MUROJAAT QILISH KERAK?

Yashash manzili bo'yicha sektor rahbari yoki Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo'limiga

→ @yoshlarmurojaatibot

YOSHLAR DAFTARIGA KIRITILGAN YOSHLARGA QANDAY YORDAM BERILADI?

- tadbirkorlik va kasb-hunarga o'qitiladi
- mikrokreditlar ajratiladi
- ish bilan bandligi ta'minlanadi
- yetakchi tadbirkorlar va usta hunarmandlarga biriktiriladi
- dehqonchilik uchun **1 gektargacha** yer maydonlari ajratiladi
- **"Yoshlar daftari"** jamg'armasi tomonidan moliyaviy xizmatlar ko'rsatiladi
- tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko'rsatiladi

MIKROKREDITLAR QANDAY SHARTLARDA AJRATILADI?

Tadbirkorlik kurslarida o'qib, maxsus sertifikatini olgan yoshlarga **3 yil muddatgacha 6 oy imtiyozli** davr bilan **14% stavkada 33 million** so'mgacha ta'minotsiz yoki **225 million so'mgacha** ta'minot turlari asosida mikrokreditlar ajratiladi

TADBIRKORLIK UCHUN MAXSUS KURSLARIDA QAYERDA O'QISH MUMKIN?

a) Savdo-sanoat palatasi, "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi, O'zbekiston yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash markazi, Yosh fermerlar kengashi tomonidan alohida tashkil etiladigan 48 soatlik (haftalik) o'quv dasturi asosida tadbirkorlikka bepul o'qitiladi

б) Nodavlat ta'lim muassasalari tomonidan tashkil etiladigan tadbirkorlik o'quv kurslarida. O'quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarga maxsus sertifikat beriladi

"YOSHLAR DAFTARI" JAMG'ARMASIDAN YOSHLARGA QANDAY MOLIYAVIY KO'MAK BERILADI?

- Moddiy ahvoli qiyin yoshlarga bir martalik moddiy yordam ko'rsatiladi – 980 ming so'mgacha
- Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan "Temir daftar"ga kiritilgan oilalar farzandlarining to'lov-kontrakt summasining **50 foizigacha**, ammo **12 million 250 ming** so'mdan oshmagan miqdorda to'lab beriladi
- Ahvoli og'ir bo'lgan bemor yoshlarning mamlakatda yoki xorijiy davlatlarda davolanish bilan bog'liq xarajatlari qoplab beriladi – **12 million 250 ming** so'mgacha
- Urug'lik va ko'chatlar sotib olish uchun subsidiya ajratiladi – **1 million 960 ming** so'mgacha
- Yoshlarga, jumladan, yosh oilalarga turar joy ijarasi kompensatsiyasi to'lab beriladi
- Tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratiladi – **9 million 800 ming** so'mgacha
- adbirkorlik faoliyati hamda o'zini o'zi band qilish maqsadida noturar joyning **12 oygacha** ijara xarajatlari ko'pi bilan bir yil uchun qoplab beriladi – **6 million 125 ming** so'mgacha
- Yoshlarni tadbirkorlikka va kasb-hunarga o'qitish bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlariga sarflangan xarajatlarining **75 foizigacha** qismi qoplab beriladi:
  -tadbirkorlikka o'qitish xarajatlari – **980 ming so'mgacha**
  kasb-hunarga o'qitish xarajatlarining bir oygacha – **980 ming** so'mgacha, bir oydan ikki oygacha – **1 million 960 ming** so'mgacha, ikki oydan ortiq muddatga – **2 million 940 ming** so'mgacha
- Psixologik maslahatga muhtoj yoshlarga pullik psixologik xizmat ko'rsatilishi bilan bog'liq xarajatlari qoplab beriladi
- Yoshlarning iste'dodlarini qo'llab-quvvatlash, besh muhim tashabbusni ro'yobga chiqarish doirasidagi tadbirlar moliyalashtiriladi

"YOSHLAR DAFTARI" JAMG'ARMASIDAN MOLIYAVIY KO'MAK OLISH UCHUN KIMGA MUROJAAT QILISH KERAK?

Yashash manzili bo'yicha sektor rahbari yoki Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo'limiga. Sektorlar rahbari tomonidan o'rganilgan murojaat natijalariga ko'ra "Yoshlar daftari" jamg'armasining vasiylik kengashi qaroriga asosan moliyaviy xizmatlar ko'rsatiladi

YOSHLAR QANDAY HOLLARDA YOSHLAR DAFTARIDAN CHIQARILADI?

- bandligi ta'minlanganda (ishga joylashtirilganda, tadbirkor va usta hunarmandlarga biriktirilganda, dehqonchilik uchun yer maydonlari ajratilganda va h.k.)
- doimiy daromad manbaiga ega bo'lganda (mikrokreditlar, subsidiyalar ajratilganda va h.k.)
- OTM to'lov-kontrakt xarajatlari to'lab berilganda
- noturar joyning ijara xarajatlari qoplanganda
- asbob-uskuna va mehnat qurollari bilan ta'minlanganda
- turar joy ijara kompensatsiyasi to'lab berilganda
- malakali tibbiy xizmat yoki psixologik yordam ko'rsatilganda
- muammosi qonuniy hal etilganda